



MULOQOT IJTIMOYIY FALSAFIY HODISA SIFATIDA

TURAEVA DILDORA SHUHRATOVNA

Samarqand davlat tibbiyot insituti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası assistenti

Annotaciya: Maqola ijtimoiy falsafaning eng dolzarb va kam o'rganilgan muammolaridan biri bo'lgan muloqot muammosining falsafiy tahlili amalga oshirilgan. Maqolada muloqotning ijtimoiy falsafiy mohiyati, strukturasi, asosiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Muloqot ijtimoiy falsafiy hodisa sifatida indivijning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi ochib berilgan. Bunda, muloqot kishilarning turli ijtimoiy iqtisodiy, ruhiy ma'naviy va biologik ehtiyojlarini qondirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning substansional asosi sifatida olib qaralgan.

Kalit so'zlar: muloqot, aloqa, kommunikatsiya, ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiylashuv, integratsiya, interaktiv jihat, pertseptiv jihat, muloqot strukturasi, muloqot mexanizmlari.

Inson bioijtimoiy, ruhiy-ma'naviy mavjudod sifatida xilma-hil ehtiyojlarga ega. Ana shu ehtiyojlarning qondirib borilishi jarayonida inson shakllanadi, rivojlanadi, o'z ruhiy ma'naviy qiyofasini shakllantirib boradi. Inson ehtiyojlari tizimida muloqotga bo'lgan ehtiyoj eng muhim ahamiyat kasb etadi desak hato bo'lmaydi. Zero, insonning boshqa turdagi deyarli barcha ehtiyojlarining qondirilishi aynan uning muloqotga bo'lgan ehtiyojining nechog'li qondirilishi bilan bog'liq. Inson atrofıdagi kishilar bilan muloqotga kirish jarayonida ularga o'zining barcha ehtiyojlari haqida xabar, ma'lumot beradi va atrofıdagilar bilan ijtimoiy munosabatga kirishadi. Bugungi kunga qadar insoniyat kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va tartibga

solishning muloqotdan samaraliroq mexanizmini o'ylab topgani yo'q. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, insoniyatning eng qadimiy ajdodlari muloqotga kirishishni o'ylab topmaganlarida balki insoniyat sivilizatsiyasi ham bo'lmas edi. Chunki, muloqot jarayonida inson atrofıdagilar bilan informatsiya va ma'lumot almashadi, bilganlarini boshqalarga tarqatadi, bilmaganlarini boshqalardan o'rganadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda turli ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy huquqiy muammolarni yechimini topishda muloqotning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi davlat siyosati darajasida olib qaralmoqda. Мамлакатда амалга оширилаётган демократик жараёнларнинг сифати ва

натихадорлигини тубдан ошириш ҳамда инсоннинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатларини, шу жумладан одамлар ҳаётининг муносиб даражасини таъминлаш, улар амалга оширилиши учун давлат органларининг роли ва масъулиятини кучайтириш, аҳоли билан очиқ мулоқотни йўлга қўйиш ва уларнинг муурожаатлари билан ишлашнинг янги самарали механизмлари ва усулларини жорий этиш, фуқароларни безовта қилаётган ҳаётий муаммоларни ўз вақтида ҳал этиш мақсадida 2017 «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили» деб е’лон қilinganligi va ushbu yo’nalishdagi ishlarimizni to’g’ri tashkillashtirishning huquqiy asosini yaratish maqsadida Davlat dasturini ishlab chiqilishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Biz ushbu ilmiy ishimizda ijtimoiy falsafiy hodisa sifatida muloqotning strukturasi, o’ziga xos xususiyatlari va asosiy funksiyalarini falsafiy tahlilini amalga oshirishga harakat qilamiz.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning o’z xilma-hil ehtiyojlarini qondirish maqsadida aloqaga kirishish, ma’lumot almashishdan iborat bo’lgan o’zaro ta’sir etishdir. Muloqot unikal sotsial-psixologik hodisa bo’lib, kishilarning turli ehtiyojlarni irgalikda qondirishga yo’naltirilgan maqsadli faoliyatini tashkillashtirishning eng asosiy shkli

hisoblanadi. Inson jamiyatda yashar ekan, atrofda kishilar bilan aloqaga kirishadi va turli muammolarning yechimini birgalikda ishlab chiqishga harakat qiladi. Muloqot jarayonida inson yangi bilim va ko’nikmalar, tajriba hosil qiladi va o’z navbatida ushbu bilim va tajribalarni yana yangi muloqotlar natijasida atrofda kishilarga yetkazib beradi. Muloqot jarayonida kishilar shunchaki aloqa qilib qolmasdan, bir birlarini yaxshiroq anglash, bir birlarining ichki kechinmalarini xis qilish, bir biriga nisbatan insoniy tuyg’ularini shakllantirish imkoniyatiga ega bo’lishadi. Mashhur rus faylasufi R.S.Nemovning fikricha “Muloqot deyarli barcha tirik mavjudodlarda uchraydi. Lekin inson darajasida muloqot o’zining oliy darajasiga erishadi, onglik, estetiklik va maqsadga yo’nalganlik kabi jihatlarni kasb etadi va eng muhimi, nutq vositasida o’zining eng oliy darajasiga erishadi”¹ Muloqot hayot kechirishning bir shaklidir. Inson organizmida muhim hayotiy elementlar inson tanasi bo’ylab harakatlanib, undagi hayotiylikni ta’minlagani kabi, muloqot jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi anashunday hayotiylikni ta’minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Muloqot birgalikdagi harakat extiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir - biriga ta’sir etish, boshqalarni tushinish,

¹ Р.С.Немов. Психология. Москва. ЛитРес. 2018. С.118

odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish va rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Muloqotning tizimida o'zaro bir-biriga bog'liq bo'gan 3 ta muhim jihat mavjud: kommunikativ, interaktiv va pertseptiv.

1. Muloqatning kommunikativ jihati bu muloqat jarayonida individlarning o'zaro ma'lumot almashinishidir. Muloqotning kommunikativ jihati bu uning substansional, eng asosiy jihati hisoblanadi. Bunda nutq vositasida kishilar o'zaro aloqaga kirishishadi va bu jamiyatning ijtimoiy mohiyatini tashkil etuvchi qonuniyat ham hisoblanadi.

2. Muloqotning interaktiv jihati bu individlarning muloqat jarayonida nafaqat bilim va g'oyalar balki harakatlar bo'yicha ham o'zaro ta'sirini tashkil etishdan iborat. Ya'ni, muloqotning interaktiv jihati kishilar o'rtasidagi muloqotning faqat nutq orqali emas, balki turli xatti harakatlar orqali ham amalga oshirilishini nazarda tutadi. Masalan, ta'lim jarayoni, bunda jarayon faqat so'zlashish orqali amalga oshirish bilan cheklanib qolmasdan, turli o'yinlar, harakatlar bilan ham informatsiya almashilinadi. Yanada aniqlik kiritadigan bo'lsak, muloqot shaxslararo birgalikdagi harakat, ya'ni odamlarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida tarkib topadigan aloqalari va o'zaro bir-birlariga ta'sirining yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi.

Hamkorlikdagi faoliyat va munosabat ijtimoiy qoidalar – odamlarning birgalikdagi harakati va o'zaro munosabatlarini qat'iyon belgilab qo'yadigan hamda jamiyatda udum bo'lgan xulq-atvor namunalari asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat sharoitida yuz beradi. Jamiyat ijtimoiy qoidalar sifatida qabul qilgan, ma'qul topgan, udumga aylangan va tegishli vaziyatda turgan har bir kishidan bajarilishini kutayotgan namunalarning o'ziga xos tizimini yaratadi. Ularning buzilishi qoidadan chetga chiqadiganlarning xulq-atvori to'g'rilanishini ta'minlaydigan ijtimoiy nazorat mexanizmlari ma'qullamaslik, ta'na qilish, jazolashni o'z ichiga oladi.

3. Muloqatning pertseptiv jihati muloqot jarayonida kishilarning o'zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishni nazarda tutuvchi jihatdir. Ya'ni, kishilar o'rtasidagi muloqotning nisbatan yuqori bosqichini nazarda tutgan perseptiv jihat, kishilarning bir-birini emotsional va intellektual jihatdan anglash, tushunish, bir-biriga yaqinlashishni, bir-birini yaxshiroq xis qilishni nazarda tutadi. Muloqotning mazkur jihatida idrok qilinayotgan odamni idrok qiluvchi o'zining shaxsiy xislatlari bilan qiyoslash natijasida anglaydi va tushunadi. Idrok qilinayotgan shaxsning o'rniga idrok qiluvchi o'z xohishi bo'yicha mulohaza yuritishi, uni tushunishga intilishi o'z-o'zini anglash

negizida namoyon bo'ladi. Muloqotning pertseptiv jihati ko'proq kishilar o'rtasidagi uzoq muloqotga kirishish natijasida sodir bo'ladi. Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati va kommunikatsiyasi jarayonida uning pertseptiv jihati munosabat ishtirokchilarining bir-birini idrok etishi yuzaga keladi. Taniqli psixolog S. L.Gubinshteyn shunday deb yozgan edi: "Kundalik hayotga odamlar bilan muomalaga kirisharkanmiz, biz ularning xulq - atvoriga mo'ljal olamiz. Negaki biz ularning tanqidiy ma'lumotlariga ma'lumotlari mohiyatini go'yo o'qib ya'ni mag'zini chaqib chiqamiz va shu yo'sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz"¹. Muomalaning perseptiv jihati bu kishining boshqa kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir. Shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa amal qiladi, ya'ni xabar beruvchi funksiyani va o'zini - o'zi boshqarish funksiyasini bajaradi. Ko'p hollarda insonlarning bir-birlarini idrok etish jarayoni «ijtimoiy pertsepsiya» sifatida namoyon bo'ladi. Muloqotning bu jihati ijtimoiy pertsepsiyangina emas, balki shaxslararo pertsepsiyani ham ifodalaydi. Inson jamiyatda shaxs sifatida qabul

qilingani sari muloqotda ham shaxs sifatida namoyon bo'ladi. S.L.Rubenshteynning fikricha: «Biz insonni tashqi xulq - atvoriga qarab o'qiyamiz. Boshqa odamni o'rgana turib, o'rganayotgan individning o'zi ham shakllanib boradi»².

Odamlarda samarali muomala o'rnatish malakasining shakllanishi oila va ta'limning maxsuli sifatida yuz beradi. Bundan tashqari maktab yoshidagi o'quvchilar xulq - atvor qoidalariga bag'ishlangan ommabop adabiyotlarni o'qir ekan, muloqot madaniyatining ba'zi jihatlari bilan tanishadi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda va butun dunyoda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muloqoti nihoyatda katta ahamiyatga ega. Psixolog olim V.N. Myasishev muloqot muammosini chuqur tadqiq qilgan va unifalsafiy psixologik muammo sifatida o'rgangan. Boshqa olimlar muloqotni nutq va kommunikatsiya bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar, V.N. Myasishev muloqotni bit butun jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilishning eng muhim usuli sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: "Shaxs turlicha munosabatlarda o'zining turlicha

¹ С.Л.Рубинштейн. Бытьё и сознание. Человек и мир. Москва. Юрайт. 2017. С.243

² С.Л.Рубинштейн. Бытьё и сознание. Человек и мир. Москва. Юрайт. 2017. С.244

qirralarini hattoki, qarama-qarshi sifatlarini namoyon qilishi mumkin”¹ O'zining «Shaxs va jamiyat» kitobida rus tadqiqotchisi A.A.Bodalyev muloqot masalaga katta e'tibor berib, bu muammoning kam o'rganilganligini ta'kidlaydi. A. A. Bodalyevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash zarur»². Muloqotning muvaffaqiyatli bolishida shaxs sifatlarining o'zini, axloqiy fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa, xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabi axloqiy me'yorlar va tamoyillar uning qadriyatlar tizimidan yetarlicha o'rin egallagan bo'lsa, bunday shaxs bilan muloqot jarayoni oson kechadi. Chunki kishilar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular bir-birlari bilan samimiy bo'lishlari lozim. Shaxsni muloqot usullariga o'rgatish jarayoni tizimli jarayon bo'lib, bolalar yoshlikdan avvalo oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga o'rgatib boriladi. Muloqotga o'rgatishning usullaridan biri muloqot ko'nikmasini turli o'yinlar va mashg'ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog'cha sharoitida

tarbiyachi turli mashg'ulotlar o'tkazib muloqotga kirishish ko'nikmalarini o'rgatadi. Eng avval elementar o'zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullar tarkib toptiriladi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxs ijtimoiy-psixologik treninglar va maxsus fanlar orqali to'g'ri muloqotga kirishish ko'nikmalariga o'rgatiladi. Shaxsning o'zi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi ushbu jarayonda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki shaxs muloqotda bo'lmasdan turib faoliyat subyekti sifatida ham, individual shaxs sifatida ham to'laqonli rivojlana olmaydi.

A.A.Bodalev muloqotning maqsadga ko'ra 8 ta funktsiyasi mavjudligini ta'kidlab o'tgan. Bular:

1. Kontakt.
2. Aloqa o'rnatish.
3. Undovchilik.
4. Koordinatsion.
5. Tushunish.
6. Amotiv (hissiy aloqa) hissiyotni o'zgartirish.
7. Munosobat o'rnatish o'z o'rnini anglash)

¹ В.Н.Мясишев. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений. Москва. 2011. С.125

² А.А.Бодалев. Акмеология. Москва. Изд.МГУ. 2010. С.261

8. Ta'sir o'tkazish¹.

Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishini, individning shaxs bo'lib shakllanishini, uning jamiyat bilan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Muloqot ham o'ziga xos ehtiyoj. Polshalik olim E.Melibruda aytganidek, "shaxslararo munosabatlar biz uchun suv bilan havodek ahamiyatga egadir"². Muloqot o'ta murakkab jarayon bo'lganligi sababli unga yagona to'g'ri ta'rif berish oson emas. Shuning uchun odatda "muloqot" tushunchasining mazmuni uning ayrim tomonlariga urg'u berish orqali ochib beriladi. Mashhur rus psixologi A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida muloqotni ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayirboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida talqin etilgan.

O'zbek psixologiya fanining yetakchi vakillaridan biri M.G.Davletshin muallifligidagi «Umumiy psixologiya» o'quv qo'llanmasida esa, muloqot "ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir"³- deb ta'kidlanadi.

Falsafa qomusiy lug'atida esa muloqot hodisasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Insonning boshqa kishilar bilan aloqaga kirishish ehtiyojini qondirish uchun individlar yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasida bevosita faoliyatlar, bilimlar, malakalar, tajribalar, axborotlar almashinuvidagi o'zaro ta'sir bu - muloqotdir"⁴, deb ta'rif berilgan. Demak, muloqot ikki va undan ortiq kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish ehtiyojini qondirishga qaratilgan o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bunda axborotlar almashiniladi, munosabatlar o'rnatiladi va jarayondan kelib chiqib rivojlantiriladi.

Muloqotning hamkorlikda harakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan vosita bu til bo'lib, u muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. Axborotni boshqaga yo'llayotgan kishi, kommunikator va uni qabul qilayotgan kishi, retseptient munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta tizimidan foydalanishlari, ya'ni «bitta tilda» so'zlashishlari kerak. Agar kommunikator va retseptiyent turlicha «til»da so'zlashsalar, ular o'zaro hamjihatlikka va birgalikda faoliyat borasida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Qo'llanadigan belgilar (so'zlar,

¹ А.А.Бодалев. Акмеология. Москва. Изд.МГУ. 2010. С.261

² Е.Мелибурда. Я-Ты-Мы. Варшава. 1980. С.324

³ М.Г.Давлетшин. Общая психология. Ташкент. 2003. С.165

⁴ Фалсафа: комусий луғат (Тузувчи ва масъул мухаррир Қ.Назаров). –Т.: Шарқ, 2004. –496 б.



imo-ishoralar va boshqalar) zamiridagi mohiyat muloqotda ishtirok etayotganlarga tanish bo'lgan taqdirdagina axborot almashish imkoni bo'ladi.

“Muloqot” tushunchasini “kommunikatsiya” tushunchasidan farqlash lozim. Kommunikatsiya jonli va jonsiz tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, daraxtlardagi irsiy belgilarning uzatilishi, insonning turli-tuman texnik vositalar bilan aloqaga kirishishi – bularning barchasi kommunikatsiya hisoblanadi. Muloqot faqat insonlar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo'lish jarayonida ijtimoiylashib, shaxsga aylanib boradi. Muloqot tufayli inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallaydi. Umuman olganda, muloqot fenomeni psixologiya fanida atroflicha o'rganilgan. B.F.Lomov [2], L.A.Karpenko va boshqalar muloqotning funksiyalari, ichki tuzilishi, xususiyatlari borasida jiddiy tadqiqotlar e'lon qilishgan.

Yuqorida qayd etilgandek, muloqot – bu birinchi navbatda axborot bilan bog'liq noyob hodisa, o'ziga xos axborot jarayonidir. Umuman olganda, axborot jarayonlari axborotni qabul qilish, saralash, saqlash, uzatish va boshqalardan iborat ijtimoiy jarayonlardir. Axborot jarayonlari butun jamiyat organizmini qurshab olib,

barcha ijtimoiy tizimlarni qamraganligi, ijtimoiy hayotning har qanday, hatto, eng kichik qismida ham mavjudligi bilan ahamiyatlidir. Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy axborot asosiy turlari ichida axborot almashinuvidan iborat muloqot turi ustunlik qiladi. Insonlar muloqotining chuqur ijtimoiy determinatsiyasi hayot faoliyati va umuman olganda, butun jamiyat rivojlanishi uchun axborot almashinuvining o'rni qanchalik muhimligidan dalolat beradi.

Yirik psixolog olim G.M.Andreyevaning fikricha, muloqotni kommunikatsiyaga qaraganda kengroq kategoriya sifatida talqin etib, muloqot tuzilmasida uchta o'zaro bog'langan jihatlarni ajratishni taklif qiladi[8]. A.V.Sokolov muloqot kommunikativ faoliyatning shakllardan biri, bu shakllar kommunikatsiyaga kirishayotgan sheriklarning maqsadlariga qarab bir-biridan farqlanadi, deya mazkur fikrga qarshi chiqadi[9]. Yana bir yondashuv bo'yicha muloqot jamiyatdagi barcha axborot jarayonlarini qamrab olmaydi, degan fikrni ilgari suruvchi olimlar guruhi mavjud. Vaholanki, axborot jarayonlari jamiyat organizmini, barcha ijtimoiy tizimostilarni qamrab oladi va ijtimoiy hayotning har qanday, hatto, eng kichik qismida ham mavjud, shu bilan birga, ular hamisha ham so'z, nutq yoki matn shaklida bo'lmasligi mumkin. Aslida, verbal, so'z shaklidagi xabarlar jamiyatda axborot almashinuvining

kichik bir ulushini tashkil qiladi, qolgan vaziyatlarda axborot almashinuvi tildan foydalanmasdan amalga oshiriladi hamda axborot tashuvchilari sifatida noverbal signallar, mimika, intonatsiya, harakatlar va h.k., shu bilan birga, madaniyatning moddiy shakllari, buyumlar xizmat qiladi. Madaniyatning moddiy shakllari axborotni ham makon, ham zamon bo'yicha uzatishga imkon beradi. Aynan shuning uchun muloqot insonlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni o'rnatish va ta'minlashga qaratilgan hamda, birinchi navbatda, verbal, ya'ni til, nutq yoki matn yordamida amalga oshiriladigan o'ziga xos axborot almashinuvi jarayonlarini bildiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, muloqot kishilarning barcha ehtiyojlarini qondirishning yagona mexanizmi hisoblanadi. Jamiyatda vujudga keladigan turli muammolarning yechimi, davlat va shaxs, davlat va xalq o'rtasidagi legitimlik darajasi, mamlakatda xalq bilan muloqot qilish mexanizmlarining nechog'li samarador va zamonaviy usullarda tashkil etilganligiga bog'liq. Shu sababdan muloqot muammosining ijtimoiy falsafiy, psixologik va pedagogik aspektlarini chuqurroq o'rganish va amaliyotga tadbiiq etish nihoyatda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. А.А.Бодалев. Акмеология. Москва. Изд.МГУ. 2010. С.261
2. М.Г.Давлетшин. Общая психология. Ташкент. 2003. С.165
3. Е.Мелибурда. Я-Ты-Мы. Варшава. 1980. С.324
4. В.Н.Мясищев. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений. Москва. 2011. С.125
5. Р.С.Немов. Психология. Москва. ЛитРес. 2018. С.118
6. С.Л.Рубинштейн. Бытие и сознание. Человек и мир. Москва. Юрайт. 2017. С.244
7. Фалсафа: комусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. –496 б.
8. Махмудова А. Н. и др. Медицина Узбекистана-достижения и перспективы развития сферы //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 3 (57).
9. Махмудова А. Н. и др. Роль молодого поколения в формировании современного гражданского общества //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 3 (57).
10. Nugmanovna M. A. The role of social control in the legal socialization of the individual //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 712-721.
11. Makhmudova A. N. Legal socialization problems of personality in modern civilian society //Scientific Bulletin of Namangan



- State University. – 2019. – Т. 1. – №. 3. – С. 146-151.
12. Nugmanovna M. A. Factors and means of the content of legal socialization of the individual in modern civil society *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*
13. Джуракулов Х. А. Роль экологического правового сознания в развитии международных эколого-политических отношений //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2017. – №. 7-1. – С. 23-26.
14. Джуракулов Х. А. Необходимость трансформации экологических правовых знаний при формировании правового сознания молодежи //перспективы развития науки в современном мире. – 2019. – с. 140-146.
15. Djurakulov H. Pedagogic-didactic tasks of forming ecological legal consciousness of young generation //Modern jurisprudence: legal thought and enforcement practice. – 2017. – С. 4-8.
16. Djurakulov H. A. Необходимость согласования социальных и политических методов и средств в формировании экологического правосознания //theoretical & applied science. – 2020. – №. 1. – с. 262-265.
17. Suyunova K.B. // Governmental support of innovation in the sphere of tourism // INNOVATIONS IN ECONOMY №4 (2020), 79 p.
18. Мажидов Ш. Ф. К вопросу об этнокультурной безопасности (на примере Центральной Азии) //Власть в логике и риторике межнациональных и межконфессиональных отношений. – 2017. – С. 78-81.
19. Мажидов Ш. Ф., Саидова Х. Реформы в сфере образования и личность преподавателя //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2007. – Т. 5.
20. Мажидов Ш. Развитие этнокультурных процессов в центральной азии и центральной европе: сравнительный анализ //Общество и этнополитика. – 2015. – С. 352-356.
21. Sabirovna S. G. Innovative thinking and heuristics //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 4. – С. 568-574.
22. Sultanova G. Metodology and way of thinking in postnonclassical phylosophy (epistemological analysis) //Міжнародний науковий журнал. – 2016. – №. 6 (3). – С. 94-96.
23. Sultanova G. Metodology and way of thinking in postnonclassical phylosophy (epistemological analysis) Концептуальные проблемы постнеклассического стиля научного мышления //В журнале опубликованы научные статьи по актуальным проблемам современной науки. Материалы публикуются на языке оригинала в авторской редакции. Редакция не всегда разделяет мнения и взгляды авторов. Ответственность за достоверность фактов, имен, географиче-ских названий, цитат, цифр и других сведений несут авторы публикаций. При использовании научных идей и материалов этого сборника,



IJARST

International Journal For Advanced Research In Science & Technology

A peer reviewed international journal

www.ijarst.in

ISSN: 2457-0362

- ссылки на авторов и издания являются обязательными. – 2016. – С. 94.
24. Махмудова А. Н. Правовая социализация молодого поколения в правовом государстве //дистанционные возможности и достижения науки. – 2020. – С. 97.
25. Махмудова А. Н., Ахмеджанова Д. М. Вопросы воспитания гармонично развитой молодежи в воззрениях джадидов и современность //Главный редактор. – 2017. – С. 90.
26. Nugmanovna M. A., Kamariddinovna K. A. Modern biotechnical problems of medicine and their solutions //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 13. – №. 1. – С. 169-173.
27. Salizhonovna S. Y., Ziyodullaevna M. M. Issues of social justice and punishment in temur's structures //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 13. – №. 1. – С. 165-168.